



**O‘ZBEKISTONDA AHOLIGA TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH
TIZIMINING TARIXIY
TRANSFORMATSIYASI (1991–2025)**

TURSUNOV VAZIRBEK

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar, tibbiy xizmat sifatini oshirish hamda raqamli tibbiyot tizimining joriy etilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam, islohotlar, shifokor, raqamli tibbiyot, sog‘lom turmush tarzi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития системы медицинского обслуживания населения Республики Узбекистан в годы независимости. Раскрываются реформы, проведённые в сфере здравоохранения, повышение качества медицинских услуг и внедрение цифровых технологий в медицинскую практику.*

Annotation: This article examines the formation and development stages of Uzbekistan’s healthcare system during the years of independence. It highlights the main healthcare reforms, improvements in the quality of medical services, and the implementation of digital medicine technologies. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan 1991-yildan boshlab, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki sog‘lom aholi – har qanday davlatning kuch-qudrati va taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda tibbiy xizmatni yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda zamonaviy tibbiyot infratuzilmasini yaratish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Dastlabki yillar (1991–2000) O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki yillarda sog‘liqni saqlash tizimi sovet davridan meros qolgan tuzilma



asosida faoliyat yuritdi. Ammo yangi sharoitda bu tizimni yangilash, mahalliy sharoitga moslashtirish zarur edi. Shu sababli 1998-yilda “Sogʻlom avlod uchun” davlat dasturi qabul qilinib, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, bolalar oʻlimini kamaytirish va profilaktik tibbiy xizmatni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratildi. Qishloq joylarda qishloq vrachlik punktlari tashkil etilib, aholiga yaqin joyda tibbiy yordam olish imkoniyati yaratildi. Shu davrda tibbiyot xodimlari soni ortdi, emlash dasturlari keng yoʻlga qoʻyildi, aholining tibbiy madaniyatini oshirish boʻyicha ishlar amalga oshirildi. Rivojlanish bosqichi (2001–2016) 2000-yillarda sogʻliqni saqlash tizimi izchil rivojlandi. Yangi klinikalar, diagnostika markazlari, ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari qurildi. Sogʻlom avlodni tarbiyalash, yosh oilalarga tibbiy maslahat berish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish ishlari davom etdi. Shuningdek, tibbiyot sohasida xususiy sektor paydo boʻldi. Xususiy klinikalar, stomatologiya markazlari va laboratoriyalar aholiga sifatli xizmat koʻrsatishni boshladi. Shifokorlar malakasini oshirish uchun xorijiy davlatlar bilan hamkorlik oʻrnatildi. Shu davrda “Sogʻlom bola yili”, “Onalik va bolalikni muhofaza qilish” kabi dasturlar katta ahamiyat kasb etdi. Yangi bosqich – Shavkat Mirziyoyev davrida (2017–2025) 2017-yildan boshlab sogʻliqni saqlash tizimi yangi bosqichga oʻtdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida “Harakatlar strategiyasi”da sogʻliqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish, raqamli tibbiyot tizimini joriy etish va shifokorlarning mehnatini munosib qadrlash boʻyicha muhim chora-tadbirlar belgilandi. Davlat tomonidan “Sogʻlom turmush tarzi” konsepsiyasi qabul qilinib, aholini profilaktik tibbiy koʻrikdan oʻtkazish, onlayn maslahat tizimlari, elektron tibbiy kartalar, 2020-yilda pandemiya sogʻliqni saqlash tizimi uchun sinov boʻldi, ammo shu orqali onlayn tibbiy xizmatlar va mobil klinikalar tez rivojlandi. 2024-yilda “Sogʻliqni saqlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlandi. Unda quyidagi yoʻnalishlar belgilandi:

- 1) Tibbiy xizmatni toʻliq raqamlashtirish;



- 2) Sun'iy intellekt asosida diagnostika tizimlarini yaratish;
- 3) Shifokorlar malakasini oshirish va ularni moddiy rag'batlantirish;
- 4) Xalqaro tibbiy standartlarni joriy etish.

Bugungi kunda mamlakatimizda yuzlab yangi tibbiyot markazlari qurilmoqda, chet el investitsiyalari jalb etilmoqda, va tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalar keng joriy qilinmoqda.

Xulosa:

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon sog'liqni saqlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib, zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish tizimiga aylandi. Ilk yillarda asosan tizimni barqarorlashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda uni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va xalqaro tajribalarni qo'llash ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Shifokorlarning bilim va malakasi oshmoqda, tibbiy texnologiyalar yangilanmoqda. Kelgusida esa sun'iy intellekt, elektron tibbiyot va xalqaro hamkorlik orqali sog'liqni saqlash tizimi yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
- 2.)“Sog'lom avlod uchun” davlat dasturi. – Toshkent, 1998- yil
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni “2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi to'g'risida”.
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi qarori “Sog'liqni saqlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”.
- 5) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari!“Telemeditsina” loyihalari joriy etildi.